

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
 M.R. Qodirxonov
_____ 2025-yil

13.00.08 – “MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) hamda
doktorantura (DSc) talabgorlari uchun kirish imtihoni

DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirining 2017 yil 14 sentyabrdagi " Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy –pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 660-sonli buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinng 2017 yil 22 maydagi " Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida" Nizom talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga asoslangan holda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablariga mos ravishda 13.00.08–Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha talabgorlar uchun tuzildi.

Tuzuvchilar: PhD., prof. M.X.Asranbayeva
p.f.d., prof..Sh.K.Xujamberdiyeva

Taqrizchi: PhD., dots. N.J.Abdusamatova
dots. D. K.Asqarova

Dastur va baholash mezonini Namangan davlat pedagogika instituti kengashining 2025-yil 29- oktyabrdagi 3 - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Maktabgacha ta'lim
kafedrasi mudiri**

PhD., prof. M.X.Asranbayeva

**Kelishildi:
Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik
kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i:**

J.Yuldashev

Kirish

Ushbu dastur 13.00.08. – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Dasturda bakalavriatning 60110200 - Maktabgacha ta'lim yo'nalishi va 70110201-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) magistratura mutaxassisligi o'quv rejalarining mutaxassislik fanlarning o'quv dasturlari asosida talabgorlar e'tibor qaratishi zarur bo'lgan talablar berilgan. Shuningdek, ushbu fanlar doirasida asosiy tushunchalar, atamalar va fanning asosiy mazmunini jamlagan mavzular tartiblangan. Xususan, fanlar doirasida maktabgacha ta'limning taraqqiyot yo'li va metodologiyasi, ta'lim-tarbiya tamoyillarining tarixiy asoslari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyalashuvini jadallashtirish kabi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzular o'rin olgan.

Dasturning maqsadi va vazifalari:

13.00.08. – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlarning bilim darajasini sinovdan o'tkazish uchun asos sifatida olingan fanlar, ular mazmuni, umumiy savolnoma hamda baholash mezonlarini taqdim etishni ko'zda tutadi.

Dastur bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:

maktabgacha ta'limning ta'lim tizimida tutgan o'rni, maktabgacha ta'lim bo'yicha kasbiy faoliyatning umumiy tamoyillari, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining nazariyasi va tarixi fani bilan uzviyligi, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining rivojlanish tamoyillari to'g'risida, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi tarixi, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini bilishi kerak;

- İlk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining nazariy va amaliy bilimlarini egallash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya berish, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak; ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasiga qo'yiladigan asosiy talablar, maktabgacha ta'limning mazmuni, ilmiy-tadqiqot metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash, maktabgacha ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tarbiya jarayonini tashkil etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari; maktabgacha ta'limni o'qitish tarixi, rivojlanishi, fanning obekti va subekti; "Maktabgacha ta'limni o'qitish metodikasi", "Maktabgacha ta'limni o'qitish metodikasi"ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; maktabgacha ta'lim tarbiya, maktabgacha ta'limni o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar; maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tarbiyani o'qitish metodlari; İlk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanida qo'llanadigan innovatsion

texnologiyalar; fanni o'qitishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqidagi ko'nikmalarga ega bo'lish. bolalarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan xolda, pedagogik va psixologik jixatdan to'g'ri tashkil etilgan faoliyatni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borish va bola psixologiyasi va fiziologiyasini rivojlantirishda o'z tajriba va malakalarini to'g'ri qo'llay olishni bilishlari va tegishli **malakalariga ega bo'lishlari lozim.**

Maktabgacha ta'lim tarbiyani loyihalashtirish va tashkil etish, maktabgacha ta'lim tarbiyani mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, maktabgacha ta'limida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, talabalar o'quv biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish ko'nikmalarini egallash.

1. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad va vazifalari.
2. Maktabgacha pedagogika fanining ob'ekti va predmeti.
3. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi ta'limotlari.
4. G'arb mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi ta'limotlari.
5. Maktabgacha pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.
7. Pedagogik ilmiy tadqiqot.
8. Adabiyotlarni o'rganish – ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
9. Kuzatish - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
10. Suhbat - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
11. Bolalarning ijodini o'rganish - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
12. MTT hujjatlarini tahlil qilish - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
13. Eksperiment, tajriba-sinov – ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
14. Test sinovlar - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
15. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilish - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
16. Matematik va kibernetik metod - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
17. Sotsiologik tadqiqot - ilmiy tadqiqot metodi sifatida.
18. Maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari.
19. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi maktabgacha ta'lim.
20. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar.
21. Maktabgacha ta'limga doir farmon, qaror va farmoyishlarni sohaga tatbiq etilishi.
22. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-sonli Farmoni.
24. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini

- yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 848-sonli qarorining mazmun mohiyati.
- 26.Davlat MTTlari xodimlarining lavozim Yo'riqnomalari (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 16 - oktabrdagi 334-sonli buyrug'iga 44 - ilova).
 - 27.Davlat MTT direktorining lavozim yo'riqnomasi.
 - 28.MTT direktor o'rinbosarining lavozim majburiyatlari.
 - 29.Tarbiyachi-metodistning lavozim majburiyatlari.
 - 30.Pedagogik akmeologiyaning asosiy muammolari.
 - 31.Professionalizm – akmeologiyaning asosiy tushunchasi sifatida.
 - 32.Maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish – ilmiy bilish va amaliyot sohasi sifatida.
 - 33.Ta'lim menejmenti boshqaruvining asosiy funktsiyalari.
 - 34.MTTda pedagogik jarayonni boshqarish.
 - 35.“Ilm yo'li” variativ dasturi.
 - 36.Qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish tartibi.
 - 37.Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lim).
 - 38.Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.
 - 39.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.
 - 40.Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi.
 - 41.Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti.
 - 42.Pedagogning kasbiy standarti.
 - 43.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari.
 - 44.Maktabgacha ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash va sohaga qabul qilishga qo'yiladigan talablar.
 - 45.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar.
 - 46.Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatleri.
 47. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.
 - 48.Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari.
 49. Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
 - 50.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar:
 - 51.Ta'lim-tarbiya – shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil.
 - 52.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni.
 - 53.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida o'yin faoliyatining o'rni.
 - 54.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida mehnat faoliyatining o'rni.
 - 55.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida o'quv faoliyatining o'rni.
 - 56.Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.
 - 57.Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari .
 - 58.Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.
 - 59.MTTlarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga qo'yiladigan talablar.
 - 60.MTTlarida jismoniy tarbiya berish usullari.

61. Tarbiya metodlari tasnifi.
62. Ijtimoiy ongini shakllantiruvchi metodlar.
63. Ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi metodlar.
64. Rag'batlantirish va jazolash metodlari.
65. Mashg'ulot - bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli sifatida.
66. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
67. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda tarbiyachining roli.
68. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.
69. 2016-2025-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar.
70. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyalash vazifalari.
71. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalari.
72. MTTlarida sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish, sport musobaqalarini o'tkazish.
73. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish mazmuni.
74. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasi vazifalari.
75. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim shakli.
76. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari.
77. Mashg'ulotning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati.
78. Mashg'ulotda tarbiyachining yetakchilik roli va innovatsion yondashuvi.
79. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekskursiyani o'tkazish mazmuni.
80. Maktabgacha yoshdagi bolalar sensor tarbiyasining mazmuni.
81. Sensor tarbiyaning asosiy usuli-tekshirish.
82. "Ilk qadam" MTTning davlat o'quv dasturi asosida bolalar faoliyatini tashkil etish.
83. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish mazmuni va asosiy vazifalari.
84. Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsplari
85. Axloqiy tarbiya metodlari va vositalari.
86. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.
87. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish mazmuni.
88. Estetik tarbiya berish vazifalari.
89. Estetik tarbiya berish metodlari va vositalari.
90. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasi berish mazmuni.
91. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish.
92. Maktabgacha yoshdagi bolalalar jalb qilinadigan mehnat turlari.
93. O'z-o'ziga xizmat qilish, topshiriqlarni bajarish.
94. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil qilish.
95. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish mazmuni.
96. 2018 yildan boshlab maktabgacha ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash va sohaga qabul qilish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar.
97. Tug'ilgandan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanishi.
98. 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar taraqqiyotidagi o'ziga xoslik.

99. 3-4 yoshli bolalarni bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasi.
100. 4-5 yoshli bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari.
101. 5-6 yoshli bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari.
102. 6-7 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi.
103. MTTlarida sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish.
104. Maktabgacha ta'limda pedagogik tizim boshqaruv ob'ekti sifatida.
105. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.
106. MTT rahbarining professional va ijtimoiy-psixologik funksiyalari.
108. Davlat MTTini boshqarishda pedagogik kengash; kuzatuv kengashi; davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari faoliyati.
109. Pedagogik kengashning asosiy vazifalari.
110. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining ish hujjatlari.
111. MTT metodisti va uni pedagogik jarayonlarni tashkil etishdagi o'rni.
112. MTTda uslubiy ishlarning asosiy shakllari va usullari .
113. MTTda Kuzatuv kengashi faoliyati.
114. O'yin turlari.
115. Qoidali o'yinlar bolalarga ta'lim berish shakli sifatida.
116. Didaktik o'yin turlari.
117. O'yinchoq turlari, o'yinchoqqa qo'yiladigan talablar.
118. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash nazariyasi.
119. MTTning maktab bilan aloqa shakllari.
120. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash.
121. MTTda oila bilan ishlash shakllari.
122. MTTga qamrab olinmagan bolalar ota-onalari bilan ish yuritish shakllari.
123. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish.
124. MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish.
125. MTTda kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI MUTAXASSISLIK FANIDAN IMTIHON TARTIBI VA BAHOLASH MEZONI

Mutaxassislik fanidan imtihon ikki bosqichda amalga oshiriladi,
maksimal 100 ball:

- 1-bosqich – Mutaxassislik fanidan suhbat – 50 ball.
- 2-bosqich- Mutaxassislik fanidan yozma ish – 50 ball,

Nogironligi bo'lgan shahslar uchun (ko'zi, eshtish va nutqida nuqsoni borlar)
Suhbat yoki yozma bo'yicha baholash mezonlari: Maksimal – 100 ball.

Izoh: Barcha sohalar, shu jumladan, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilishda tegishli fan yo'nalishlarida milliy sertifikatga ega bo'lgan talabgor mutaxassislik fani bo'yicha imtihondan ozod etiladi va unga mutaxassislik fani uchun belgilangan maksimal ball beriladi.

Talabgorlar suhbat va yozma ish natijasida olgan ballari yig'indisi bilan tanlovda ishtirok etadi va saralash ballar ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi. Talabgorlar bilimini yozma ish ko'rinishida baholash uchun 3 ta savoldan iborat ko'p variantli biletlar tuziladi. Har bir savol uchun tegishli ballar qo'yiladi. Birinchi va ikkinchi savollarga javoblar 15 balldan, uchinchi savolga javob 20 ball bilan baholanadi.

1. Suhbat bo'yicha baholash mezonlari:
Maksimal – 50 ball.

Ballar oralig'i	Mezonlar talablari
43 – 50 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri va atroflicha to'liq yoritca, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalab, javoblarida mustaqil ilmiy fikr-mulohaza va xulosalari mavjud bo'lsa.
34 – 43 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri, lekin to'liq yoritishda axborotlar yetarli bo'lmasa, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalashda bog'liqlik jihatlarini yetarli darajada keltirmasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza va xulosalarni bayon etishda kamchiliklarga yo'l qo'ysa.
27 – 34 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini qisman yoritca, savollarni olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishiga bog'liqligini ijodiy va ilmiy yondashuv asosida to'liq ifodalashda yetarlicha ma'lumot bermasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza yuritishda axborotlar yetarli bo'lmasa.
0 – 27 ballar	Mutaxassislik fanidan berilgan savolni nazariy va amaliy jihatlarini yorita olmasa yoki asossiz ma'lumotlar bilan cheklansa, olib borayotgan yoki rejalashtirayotgan ilmiy-tadqiqot ishi mavjud bo'lmasa yoki savollarni tadqiqot ishi bilan bog'lay olmasa, mustaqil ilmiy fikr-mulohaza yurita olmasa.

2. Yozma ish bo'yicha baholash mezonlari:
Maksimal – 50 ball.

1-savol (maks – 15 ball)	2-savol (maks – 15 ball)	3-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
13 – 15 ball	13 – 15 ball	17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va to'liq ma'lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo'lsa.
10–13 ball	10–13 ball	14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog'liq tushunchalarni

			hamda ta'sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma'lumotlar yetarlicha bo'lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo'lsa.
8–10 ball	8–10 ball	11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqidagi ma'lumotlar yoritilmagan bo'lsa yoki noto'g'ri yoritilgan, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo'lsa.
0–8 ball	0–8 ball	0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bilan ifodalagan bo'lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo'lsa.

3. Nogironligi bo'lgan shahslar uchun mutaxassislik bo'yicha Suhbat (ko'zi ojizlar uchun) va Yozma ish (eshitish yoki nutqida nuqsoni borlar uchun) imtihonini baholash mezonlari: Maksimal – 100 ball

Ushbu toifadagi talabgorlarga 5 ta savoldan iborat bilet tayyorlanadi. Har-bir savolga maksimal 20 ball qo'yiladi va quyidagi mezonda baholanadi.

5-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va to'liq ma'lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo'lsa.
14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog'liq tushunchalarni hamda ta'sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma'lumotlar yetarlicha bo'lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo'lsa.
11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar haqidagi ma'lumotlar yoritilmagan bo'lsa yoki noto'g'ri yoritilgan, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo'lsa.
0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo'lmagan ma'lumotlar bilan ifodalagan bo'lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo'lsa.

4. Doktoraturaga talabgorlar uchun suhbat bo'yicha baholash mezonlari:

Maksimal – 100 ball.

Ushbu talabgorlarga 5 ta savoldan iborat bilet tayyorlanadi. Har-bir savolga maksimal 20 ball qo'yiladi va quyidagi mezonda baholanadi.

5-savol (maks – 20 ball)	Mezon uchun talablar
17 – 20 ball	Savolga nazariy jihatdan to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlar bilan ijodiy yondoshgan holda, ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javob keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar bilan boyitilgan bo‘lsa.
14 – 17 ball	Savolga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondoshgan holda ilmiy qarashlar bilan ifodalangan, lekin ularning mohiyatini, xususiyatini, u bilan bog‘liq tushunchalarni hamda ta’sir etuvchi omillarni bayon etishdagi ma’lumotlar yetarlicha bo‘lmasa, mustaqil fikr-mulohazalar yuzaki axborotlar bilan cheklangan bo‘lsa.
11 – 14 ball	Savol mohiyatini yuzaki (yoki qisman) ochib bersa, savol bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar haqidagi ma’lumotlar yoritilmagan bo‘lsa yoki noto‘g‘ri yoritilsa, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar bayon etilmagan bo‘lsa.
0-11 ball	Savolga nazariy jihatdan javob bermasa yoki asossiz, tegishli bo‘lmagan ma’lumotlar bilan ifodalagan bo‘lsa hamda ularga yetarlicha izoh bermagan bo‘lsa.

Asosiy adabiyotlar

- 1 Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
- 2 Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.
- 3 Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y. O‘quv qo‘llanma.
- 4 Sodiqova SH. Maktabgacha pedagogika. T.: “BROK CLASS SERVIS” nashriyoti.2017 y.
- 5 Djuraev.R.X. Ta’lim menejmenti. T.: 2006y. O‘quv qo‘llanma.
- 6 «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent-2022 y.
- 7 M.Asranbayeva D.Olimova U.Arslanova Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. Namangan-2023 y. Darslik/

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.” T- 2017 y.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” T- 2016 y
- 3 O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son. <https://lex.uz/docs/4646908>.
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 maydagi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori. 2020 yil 22 dekabr.
- 6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 391-sonli Qarori. 13.05.2019 y.
7. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo'llanma. A.V.Shin, Sh.Sh.Mirziyoeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.